

## Boxabar bo'ling

Xabaringiz bor, fanlardan o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi 86% va undan yuqori bo'lgan va O'zbekiston yoshlar ittifoqi tizimida faol ishtirok etgan talabalarga to'lov-shartnoma summasining 35% miqdori O'zbekiston yoshlar ittifoqi tomonidan to'lab berilishi to'g'risida e'lon qilingan edi.

26 yanvar kuni Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti "Gidromelioratsiya" fakulteti va "Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash" fakulteti o'quv fanlardan o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi 86% va undan yuqori bo'lgan O'zbekiston yoshlar ittifoqi tomonidan moddiy qo'llab-quvvatlanishga da'vogar bo'lgan talabalar hamda institut yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti yoshlar yetakchisi A.Berdimurodov o'rtasida targ'ibot ishlariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazildi.

Yig'ilish davomida talabalar O'zbekiston yoshlar ittifoqi tizimida talabalar faolligini baholash mezonlari va tavsiya olish qoidalari bilan yaqindan tanishishdi hamda o'zlarini qiziqtirgan savollariga javob olishdi.

O'zbekiston yoshlar ittifoqi imtiyozlari va imkoniyatlari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish uchun institut boshlang'ich tashkilotiga murojaat qiling. Murojaat uchun tel: 2371933



**Institut yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti yoshlar yetakchisi A.Berdimurodov axboroti**

**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**